

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.I.12.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

OSTONAQULOV ALISHER ABDURASHIDOVICH

**SOLIQ QARZLARINI BAHOLASH VA UNDIRISH AMALIYOTINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz shahri – 2026-yil

UDK: 336.225.62(575.1)

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy
(Doctor of Philosophy) on economical sciences**

Ostonaqulov Alisher Abdurashidovich

Soliq qarzlarini baholash va undirish amaliyotini takomillashtirish.....5

Ostonaqulov Alisher Abdurashidovich

Совершенствование практики оценки и взыскания налоговой
задолженности.....31

Ostonakulov Alisher Abdurashidovich

Improving the practice of assessing and collecting tax debts.....63

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....68

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.I.12.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVESRITETI

OSTONAQULOV ALISHER ABDURASHIDOVICH

**SOLIQ QARZLARINI BAHOLASH VA UNDIRISH AMALIYOTINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz shahri – 2026-yil

**Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2024.1.PhD/Iqt5763 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (termizdu@umail.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Axmedov Akbarali Sultonmurodovich**
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Otamurodov Shavkat Nusratullayevich**
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.I.12.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «_____» _____soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (876) 221- 74-55, faks: (876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (876) 221-74-55, faks: (876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «_____» _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil «_____» _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.H. Toshqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

U.T. To'lakov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori,
dotsent

S. J. Gadoyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotidagi holatlardan ko‘rish mumkinki, mamlakatda davlatning xarajatlarini moliyalashtirish, jamiyatdagi ijtimoiy keskinlikni yumshatish va iqtisodiyotni tartibga solish funksiyalarini amalga oshirish samaradorligini ta’minlashda soliq tushumlarining, shu jumladan iqtisodiyotdagi mavjud soliq qarzdorligi hajmi va darajasini ta’siri yuqori hisoblanadi. “Dunyo bo‘yicha mamlakatlar iqtisodiyotida soliq qarzdorligining holati doimiy yuqori miqdorda saqlanib qolmoqda, xususan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)dagi 38 ta davlat bo‘yicha mavjud soliq qarzdorligi 2023-yilda 2,7 trillion yevroni tashkil qilgan”¹. Mamlakatlardagi iqtisodiy beqarorlik va ma’muriy qiyinchiliklar sabab mazkur holat yuzaga kelishi bilan birga, yuzaga kelgan soliq qarzdorligi holati ushbu sabab bo‘lgan omillar bo‘yicha vaziyatni yanada qaltislanishiga olib kelishi mumkin. “Markaziy Osiyodagi yirik iqtisodiyotga ega bo‘lgan Qozog‘istonda 2024-yilda respublika byudjetida soliq tushumlarining bajarilishi 97,1 foizni va 2025-yilning 11 oyligida 94,8 foizni tashkil qilgan bo‘lib”², bu holat mamlakatda soliq yig‘imlari bilan bog‘liq muammolar mavjudligidan dalolat beradi.

Jahon miqyosida milliy iqtisodiyotda davlatning rolini samarali amalga oshirishda moliyaviy manbalar barqarorligini ta’minlashga qaratilgan soliq qarzlari tartibga solishga oid bir qancha yo‘nalishlarda izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, soliq qarzlari yuzaga keltiruvchi omillarning turli mezonlar bo‘yicha guruhlash orqali tahlil qilish va ularning salbiy ta’sirini yumshatish hamda kamaytirish, yuzaga kelgan soliq qarzdorliklarini bartaraf etishni anti-korrupsion usullarni joriy etish, soliq qarzlari baholash zamonaviy uslubiyotni ishlab chiqish, soliq qarzlari undirishning samaradorligini oshirish tizimini takomillashtirish, soliq qarzi va uning holatiga ta’sir qiluvchi soliq stavkalarining ortishi va og‘ir soliq yukining mavjudligini bartaraf etish, davlat tomonidan soliq qarzdorligi bo‘yicha tartibga solishni kuchaytirish kabi yo‘nalishlarda tadqiqotlarni keng va yanada samarali amalga oshirilishi zarurati mavjud.

O‘zbekistonda soliq qarzlari baholash va undirish amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha belgilangan vazifalar, soliq qarzdorligini riskka asoslangan tarzda segmentlash, qarzning paydo bo‘lish manbalarini tezkor aniqlash va undirish choralari ixtiyoriy to‘lovni rag‘batlantiruvchi hamda majburiy ijro mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirishga qaratilmoqda. Amalda soliq organlari soliq auditi natijasida qo‘shimcha hisoblangan soliqlar bo‘yicha to‘lov intizomini oshirish uchun bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatlarini qo‘llab, xususan: “qo‘shimcha hisoblangan soliqlar summalarini qaror kuchga kirgan kundan e’tiboran olti oy mobaynida teng ulushlarda to‘lashga haqli”³ degan tartib amal qilmoqda. Shu bilan birga, qarzdorlikni undirish jarayonlari soliq xavfini tahlil qilish va avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanishga tayanilgan holda kuchaytirilib, ixtiyoriy ijro ta’minlanmagan hollarda soliq organi qarzni undirishni

¹ OECDning 2025-yilgi Soliq ma’muriyati hisoboti

² Qozog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat daromadlari qo‘mitasi rasmiy sayt ma’lumotlari

³ Soliq qarzlari undirish. - https://gov.uz/oz/soliq/activity_page/soliq-qarzlari-undirish

Soliq kodeksida belgilangan tartibda mustaqil amalga oshirishi nazarda tutilgan⁴. Natijada, undirish amaliyotida “umidsiz qarz”ni baholash va hisobdan chiqarish kabi tartiblarni aniqlashtirish bilan birga, soliq qarzlarni kamaytirishning iqtisodiy-huquqiy samarasini o‘lchash va boshqarishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 9-sentyabrdagi PF-218-son “Ta’sirchan soliq mexanizmini qo‘llash natijasida hosil bo‘lgan soliq qarzini hisobdan chiqarish to‘g‘risida”, 2022-yil 28-iyundagi PF-162-son “Soliq ma’muriyatchiligini isloh qilish davrida biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2023-yil 14-iyundagi PQ-192-son “Faol ishbilarmonlik muhitini shakllantirishni yanada rag‘batlantirish soliq majburiyatini bajarishda aholi tomonidan ortiqcha xarajatlarga yo‘l qo‘ymaslik hamda qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi 210-son “2025-2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori va ushbu sohadagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur ilmiy tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy-ma‘rifiy jihatdan yuksaltirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Soliq qarzdorligini undirish mexanizmini takomillashtirish masalasining ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatlarini xorijiy iqtisodchi olimlar Pyetrova G.V, Aushev T.A, Vinokhodova I.G, Gadzhiyeva M.A, Goncharenko L.I va Bogachev S.V, Ebraico M va Rua.S, Murtezaj I.M, Atrostic B.K va Nunns J.R, Miller M.H, Heider F, Rizqi R.M va Pratiwi A, Martinez-Vazquez J Sanz-Arcega va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan⁵.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 7 yanvardagi 1-son “Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori.

⁵ Петрова Г.В. Применение права в налоговых спорах. – М.: Алкиной Лимитед, 1997. – 159 с. // “Социальные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература. Реферативный журнал. Церийа «Государство и право»; Аушев Т.А. Организационно-экономические предпосылки возникновения налоговой задолженности и пути ее сокращения : автореф. дис. док. экон. наук. – Москва, 2004. – С. 8–9.; Винокходова И.Г. Совершенствование практики взимания задолженности организаций по налогам и сборам / к.э.н., доцент // «Общественные науки». – Россия, г. Великие Луки, 2019. – № 2. – С. 41–47.; Гаджиева М.А. Налоговое бремя и факторы его определяющие / к.э.н., доцент // «Общественные науки». – Россия, г. Махачкала, 2014. – С. 69–74; Гончаренко Л.И., Богачев С.В. Налоговое администрирование как важный фактор обеспечения

Soliq qarzdorligini undirish mexanizmining umumiy jihatlarini O'zbekistonlik iqtisodchi olimlari U.A.Berdiyeva, Sh.B.Babayev, A.A.G'iyosov, Sh.Sh.To'rayev, U.X.Normirzayev, U.T.To'lakov, U.F.Xakimov, F.B.Axmedov, Sh.Jumayev, N.B.Roziqov, J.R.Babamurodov, R.A.Nasimovlarning ilmiy ishlarida o'rganilgan ⁶.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi soliqlarini baholash va undirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

soliq qarzdorligini undirish mexanizmini takomillashtirish doirasida soliqqa tortish tizimida soliq bazasi va uni aniqlash usullariga oid ilmiy-nazariy qarashlarni tahlil qilish hamda mazkur yo'nalishning o'ziga xos jihatlariga mos ilmiy yondashuvni shakllantirish;

soliqlar bo'yicha soliq qarzining yuzaga kelish omillarini o'rganish va uni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash;

soliq qarzdorligining soliq turlari kesimidagi amaldagi holatini tahlil qilish hamda ularni undirishning huquqiy asoslarini ilmiy jihatdan tadqiq etish;

улучшения собираемости налогов // "Экономика. Налоги. Право". – Россия, Москва, 2024. – Т. 17, № 6. – С. 140–151.; Ebraico M., Ruà S. An Assessment of the Performance of the Italian Tax Debt Collection System // "Taxation Papers". – Luxembourg: Office for Official Publications of the European Communities, 2015. – No. 53. – P. 1–31; Murtezaj I.M. Tax Debts Pose a Significant Challenge for Tax Institutions // "International Journal of Religion". – London (United Kingdom), 2024. – Vol. 5, No. 6. – P. 592–600.; Atrostic B.K., Nunns J.R. Measuring Tax Burden: A Historical Perspective // "Fifty Years of Economic Measurement: The Jubilee of the Conference on Research in Income and Wealth" / ed. by E.R. Berndt, J.E. Triplett. – Chicago (USA): University of Chicago Press, 1991. – P. 343–420.; Miller M.H. Debt and Taxes // "The Journal of Finance". – Chicago (USA), 1977. – Vol. XXXII, No. 2. – P. 261–275.; Heider F., Ljungqvist A. As Certain as Debt and Taxes: Estimating the Tax Sensitivity of Leverage from State Tax Changes // "Journal of Financial Economics". – Amsterdam (Netherlands), 2014. – P. 1–73.; Rizqi R.M., Pratiwi A. Tax Avoidance Assessment in Relation to the Institutional Ownership, Size of the Company, and Profitability // "Jurnal Riset Akuntansi Terpadu". – Indonesia, g. Sumbawa – Bima, 2024. – Vol. 17, No. 1. – Hal. 56–73.; Martinez-Vazquez J., Sanz-Arcega E., Tránchez-Martín J.M. Tax Revenue Management and Reform in the Digital Era in Developing and Developed Countries // "International Center for Public Policy. Working Paper". – Atlanta (USA): Georgia State University, Andrew Young School of Policy Studies, 2022. – No. 22-01. – P. 1–40;

⁶ Berdiyeva U.A "Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish yo'llari" i.f.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozil.PhD. avtoref, – Toshkent 2019. 28 b.; Babayev.Sh.B "Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha tushumlarni prognoz qilish mexanizmini takomillashtirish" i.f.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozil.PhD. avtoref, – Toshkent 2020. 28 b.; G'iyosov A.A "Yuridik shaxslarning soliqlar qarzdorligini kamaytirish yo'llari" i.f.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozil.PhD. avtoref, – Toshkent 2020. 24 b.; To'rayev.Sh.Sh "Iqtisodiyotda soliq yukini optemallashtirish yo'nalishlari" i.f.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozil. diss DSc. avtoref, – Toshkent 2021.28 b; Normurzaev.U.X "Soliq imtiyozlarining samaradorligi nazariy metodologiyasi va amaliyoti" i.f.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozil. diss DSc. avtoref, – Toshkent 2022. 28 b.; To'lakov U.T "Ko'chmas mulkni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish" monografiya, – Termiz 2022. 67-69 b.; Xakimov.U.F "Soliq qarzini undirish amaliyoti va uni takomillashtirish yo'nalishlari" i.f.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozil.PhD. avtoref, – Toshkent 2023. 13 b.; Axmedov F.B "Soliq to'lashdan qochish xavflarini aniqlashda zamonaviy fiskal nazorati mexanizmlarini takomillashtirish" i.f.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozil.PhD. avtoref, – Toshkent 2023. 30 b.; Jumayev Sh "Yirik soliq to'lovchilarga oid soliq ma'murchiligini takomillashtirish masalalari" i.f.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozil.PhD. avtoref, – Toshkent 2023. 24 b.; Roziqov N.B "Soliq qarzdorligini bartaraf etish mexanizmini takomillashtirish" i.f.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozil.PhD. avtoref, – Toshkent 2023. 26 b.; Babamurodov J.R "Soliq qarzdorligini undirish mexanizmini takomillashtirish yo'llari" i.f.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozil.PhD. disertatsiyasi, – Toshkent 2024. 143 b.; Nasimov R.A "Soliq yukini optemallashtirish yo'llari" i.f.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozil.PhD. avtoref, – Toshkent 2024. 30 b.;

jahon iqtisodiyotida integratsiya va globallashtirish jarayonlari kuchayib borayotgan sharoitda O'zbekiston soliq tizimida soliq qarzdorligini undirishda uchrayotgan muammolar sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

soliq qarzdorligini undirish bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish va uni respublikadagi qarzdorlik tendensiyalari bilan qiyosiy tahlil qilish;

amaldagi soliq qarzi miqdorini qisqartirish yo'llari yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasidagi soliq qarzlarini bilan bog'liq jarayonlar va undagi ishtirokchilar faoliyati olindi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib soliq qarzdorligini undirish va baholash bilan bog'liq iqtisodiy va moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida guruhlash, qiyoslash, mantiqiy va tarkibiy tahlil, sintez, korrelyatsion tahlil, iqtisodiy-matematik modelashtirish va tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ortiqcha undirilgan soliq summalarini soliq to'lovchining yozma arizasiga asosan 15 kun ichida, tadbirkorlik sub'ektlarining yuqori barqarorlik reytingiga ega sub'ektlarga esa hisoblangan foizlari bilan birga 3 kun ichida qaytarish muddatlarini aniq belgilash orqali qaytarish jarayonini tezkor va shaffof tashkil etish asoslangan;

ortiqcha undirilgan soliq summalarini hisobga olish yoki qaytarish bo'yicha ariza berish muddatini soliq to'lovchiga ortiqcha undirish fakti ma'lum bo'lgan kundan yoxud sud qarori qonuniy kuchga kirgan sanadan e'tiboran 3 yil etib belgilash orqali murojaatlarni yagona muddat mezonida tartibga solish taklifi asoslangan;

tadbirkorlarga soliq auditi yoki kameral tekshiruv yakunida qo'shimcha hisoblangan soliqlar va moliyaviy sanksiyalar bo'yicha qaror kuchga kirgan kundan e'tiboran soliq organini yozma xabardor qilgan holda 6 oy davomida teng ulushlarda to'lash huquqini berish orqali soliq to'lovchining moliyaviy yukini muvozanatlash, ixtiyoriy to'lovlarni rag'batlantirish hamda undirish jarayonini tashkil etish takomillashtirilgan;

soliq majburiyati bo'yicha da'vo qilish muddatini soliq davri yakunlanganidan keyin 3 yil etib belgilash orqali soliq organlari hamda soliq to'lovchilar uchun tekshiruv va hisob-kitoblar bo'yicha aniq vaqt chegarasini belgilash, nizolarni kamaytirish hamda byudjet jarayonini samarali tashkil etish taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

soliq qarzlarini undirish faoliyatini takomillashtirish borasidagi ilmiy-nazariy qarashlarning amaliy ahamiyatiga baho berilgan;

soliq qarzlarini miqdori va tuzilmasini tahlil qilib, undirish imkoniyati hamda xavf darajasini aniqlashga yordam beruvchi soliq qarzlarini baholashga doir metodika ishlab chiqish asosida qarzdorlikni kamaytirish va undirish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar shakllantirilgan;

soliq qarzlarini paydo bo'lishiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinib, ularning asosiy sabablar doirasi, xususan, to'lov intizomidagi uzilishlar, korxona (yoki shaxs)

moliyaviy barqarorligining sustligi hamda hisob-kitob va hisobotlarda yo‘l qo‘yiladigan kamchiliklar qarzдорlikka olib kelishi ko‘rsatib berilgan;

ma‘murchilik jarayonlaridagi kechikishlar va nazoratning yetarli darajada samarali emasligi muhim omil sifatida asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqoti natijalarining ishonchliligi qo‘llangan usul va yondashuvlarning mantiqan asoslangani hamda tadqiqot maqsadiga mosligi bilan ta‘minlanadi. Shuningdek, kredit faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-nazariy asoslar chuqur o‘rganilgani, foydalanilgan adabiyotlar, me‘yoriy-huquqiy hujjatlar va internet manbalarining rasmiyligi hamda tahlil uchun olingan ma‘lumotlar vakolatli hisobot manbalariga tayangani bilan izohlanadi. Ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarining tegishli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilgani ham natijalar ishonchliligini yanada mustahkamlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati soliq qarzlarini baholash va undirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq ma‘murchiligini samaradorligini oshirishga qaratilgan nazariy-metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa ulardan soliq qarzдорligini kamaytirish, to‘lov intizomini mustahkamlash hamda soliq qarzini undirish samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Soliq qarzlarini baholash va undirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

ortiqcha undirilgan soliq summalarini soliq to‘lovchining yozma arizasiga asosan 15 kun ichida, tadbirkorlik sub’ektlarining yuqori barqarorlik reytingiga ega sub’ektlarga esa hisoblangan foizlari bilan birga 3 kun ichida qaytarish muddatlarini aniq belgilash orqali qaytarish jarayonini tezkor va shaffof tashkil etish bo‘yicha taklif O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 15-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1000-son Qonunida inobatga olingan hamda unga muvofiq Soliq kodeksining 105-moddasi 2-qismi tahrirda o‘zgartirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining 2025-yil 2-iyuldagi 27/2-75732-sonli ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ortiqcha undirilgan soliqlarni qaytarish muddatlari aniq belgilab berilib, soliq to‘lovchilarning aylanma mablag‘lari o‘z vaqtida tiklanishiga, moliyaviy yukning kamayishiga hamda soliq ma‘murchiligida shaffoflik va ishonchlilikning oshishiga xizmat qilgan;

ortiqcha undirilgan soliq summalarini hisobga olish yoki qaytarish bo‘yicha ariza berish muddatini soliq to‘lovchiga ortiqcha undirish fakti ma‘lum bo‘lgan kundan yoxud sud qarori qonuniy kuchga kirgan sanadan e‘tiboran 3 yil etib belgilash orqali murojaatlarni yagona muddat mezonini asosida tartibga solish taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi “Soliq va byudjet siyosatining 2024-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi

munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-891-son Qonunida inobatga olingan hamda unga muvofiq Soliq kodeksining 105-moddasi 1-qismi tahrirda o'zgartirilgan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 2-iyuldagi 27/2-75732-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ariza topshirishning aniq muddat chegarasi belgilab berilib, soliq to'lovchilarning huquqlarini himoya qilish kafolatlari kuchaygan, ortiqcha undirilgan summalarni qaytarish/ofset qilish jarayoni tartibga solingan va soliq ma'murchiligi amaliyoti xalqaro yondashuvlarga yaqinlashgan;

tadbirkorlarga soliq auditi yoki kameral tekshiruv yakunida qo'shimcha hisoblangan soliqlar va moliyaviy sanksiyalar bo'yicha qaror kuchga kirgan kundan e'tiboran soliq organini yozma xabardor qilgan holda 6 oy davomida teng ulushlarda to'lash huquqini berish orqali soliq to'lovchining moliyaviy yukini muvozanatlash, ixtiyoriy to'lovlarni rag'batlantirish hamda undirish jarayonini tashkil etish taklifi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrda O'RQ-891-son Qonunida inobatga olingan va unga muvofiq Soliq kodeksining 100-moddasi 4-qismi bilan mustahkamlangan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 2-iyuldagi 27/2-75732-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida qo'shimcha hisob-kitoblar bo'yicha to'lov yukini bir yo'la emas, bosqichma-bosqich qoplash imkoniyati yaratilib, tadbirkorlarning likvidligi saqlanishi, to'lov intizomi kuchayishi hamda soliq ma'murchiligi jarayonlarining shaffofligi va prognoz qilinuvchanligi oshishiga xizmat qilgan;

soliq majburiyati bo'yicha da'vo qilish muddatini soliq davri yakunlanganidan keyin 3 yil etib belgilash orqali soliq organlari hamda soliq to'lovchilar uchun tekshiruv va hisob-kitoblar bo'yicha aniq vaqt chegarasini belgilash, nizolarni kamaytirish hamda byudjet jarayonini samarali tashkil etish taklifi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrda O'RQ-891-son Qonunida inobatga olingan hamda unga muvofiq Soliq kodeksining 100-moddasi 4-qismi tegishli tartibda o'zgartirilgan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 2-iyuldagi 27/2-75732-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi amaliyotda soliq majburiyatlarini aniqlash va undirish jarayonida aniq vaqt chegarasini belgilab, huquqiy barqarorlikni kuchaytiradi. Natijada soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarda tartib-intizom oshadi, bahsli holatlar kamayadi hamda soliq qarzdorligini boshqarish va nazorat qilish mexanizmlari yanada tizimli ishlashiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 2 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, shu jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan mahalliy ilmiy nashrlarda 2 ta va nufuzli xorijiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqolalar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 133 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Soliq qarzlarini baholash va undirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida, soliq qarzdorligi, soliq yuki, soliq qarzini baholash va soliqlarni qarzlarini undirishning nazariy asoslari, soliq qarzlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi omillar tahlili batafsil yoritib berilgan.

Margherita Ebraico o‘zining soliq ma’muriyati va soliq qarzlari bo‘yicha tadqiqotlarida soliq qarzi tushunchasini chuqur tahlil qilgan⁷. Uning ilmiy izlanishlarida soliq qarzlari ikki asosiy turga bo‘linadi: nizoli soliq qarzlari va nizosiz soliq qarzlari. Iqtisodchining ta’rifiga ko‘ra, nizosiz soliq qarzi soliq to‘lovchi tomonidan qabul qilingan, ammo belgilangan muddatda to‘lanmagan soliq majburiyatlarini anglatadi. Nizoli soliq qarzlari esa soliq to‘lovchi tomonidan e’tiroz qilingan yoki sud jarayonlarida ko‘rib chiqilayotgan da’volarni o‘z ichiga oladi.

Iilr M. Murtezajning “Tax Debts Pose a Significant Challenge for Tax Institutions” maqolasida soliq qarzlarini undirishdagi muammolar va ularni hal etish bo‘yicha tavsiyalari bayon etilgan⁸. U soliq qarzlarini samarali boshqarish uchun tashkilotchilikni takomillashtirish va maxsus jamoalar tashkil etish, raqamlashtirish va axborot texnologiyalarini joriy etish, to‘lov jarayonlarini yengillashtirish va xatolarni kamaytirish, soliq to‘lovchilar bilan samarali muloqot va ularni rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, majburlov choralari va to‘lov madaniyatini uzoq muddatli rivojlantirishga e’tibor berilishini taklif etadi.

Ian Townsend tomonidan soliq yukiga quyidagicha ta’rif beradi. Soliq yuki – bu milliy yoki jismoniy shaxslar daromadlarining soliqlarda to‘lanadigan nisbati o‘lchovidir deb ta’kidlaydi⁹.

P.Kurbonova o‘z tadqiqotlarida soliq to‘lovchilar soliq qarzdorligini samarali boshqarish klassifikatsiyani ishlab chiqqan, soliq qarzdorligini baholashning uslubiyotini ishlab chiqqan. Ya’ni, quyidagi uslubiyotni keltiradi:

Tashkilotlarning taklif etilayotgan tasnifini soliq qarzlarini boshqarish maqsadlarida qoplash samaradorligi quyidagi formula yordamida baholanishi mumkin:

$$CBQ = (TSQ+HCHQ+FSQ):QQ*100 \quad (1)$$

TSQ – mumkin bo‘lgan undirishdan tahlil qilingan davrda to‘langan qarz miqdori;

⁷ Margherita Ebraico. An Assessment of the Performance of the Italian Tax Debt Collection System // Taxation papers. – 2015. P-53.

⁸ Ilir M Murtezaj Tax Debts Pose a Significant Challenge for Tax Institutions. International Journal of Religion 594 c 2024

⁹ Ian Townsend. “The Burden of Taxation”. House of commons library. Research paper 02/43 9 july 2002 3 s

HCHQ – umidsiz hisobdan chiqarilgan qarz miqdori;

FSQ – mavjud yuridik shaxslarning hisobdan chiqarilgan qarzlari summasi;

Q-Q – qaytariladigan qarz¹⁰.

T.A. Aushev fikriga ko‘ra soliq qarzдорligi – qonun bilan belgilangan soliq va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘lamaslik natijasida yuzaga keladigan moliyaviy majburiyatlar yig‘indisi sifatida ta’riflanadi¹¹.


J.Babamuratov “Soliq qarzдорligini undirish mexanizmini takomillashtirish yo‘llari nomli” ilmiy tadqiqot ishida soliq qarzдорligiga quyidagicha ta’rif beradi. Soliq qarzi – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarz summasi, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksida belgilangan muddatida to‘lanmagan moliyaviy sanksiya deb ta’kidlab o‘tgan¹².

G‘iyosovning yondashuviga ko‘ra, soliq qarzlarning shakllanishi bir nechta o‘zaro bog‘liq omillar ta’sirida yuzaga keladi. Avvalo, soliq to‘lovchilar tomonidan belgilangan hisobot majburiyatlariga lozim darajada rioya etilmasligi qarzдорlikni keltirib chiqaradi.

Bundan tashqari, soliq tekshiruvlari jarayonida aniqlangan qonunbuzarliklar natijasida qo‘shimcha soliq summalarining hisoblanishi ham muhim omil hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligi subyektlarida, xususan fermer xo‘jaliklarida, mahsulot yetkazib berish uchun to‘lovlarning mavsumiy xususiyatga ega bo‘lishi moliyaviy barqarorlikka ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat daromadlarning notekis tushishiga sabab bo‘ladi. Natijada soliq majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish imkoniyati cheklanadi.

Shu sababli soliq to‘lovlarining kechiktirilishi va qarzдорlik yuzaga kelishi ehtimoli ortadi¹³.



1-rasm. Soliq qarzlarni paydo bo‘lish sabablari ¹⁴.

Soliq qarzдорliklarini yuzaga kelishi sabablari sifatida ko‘plab omillarni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Ilmiy izlanishlarimiz natijasida soliq qarzдорligini yuzaga kelishi sabablari sifatida yuqorida keltirilgan 1–rasmga ko‘ra ularni uchta, ya’ni

¹⁰ Qarang: O‘sha manba, 22 b

¹¹ Aushev Timur Aboyevich. Организационно – экономические предпосылки возникновения налоговой задолженности и пути ее сокращения. Дисс. автореф. Moskva, 2004 8-9-s

¹² Babamuratov J. “Soliq qarzдорligini undirish mexanizmini takomillashtirish yo‘llari nomli” – avtoreferat. – Toshkent, 2024 y 12-13 s

¹³ G‘iyosov A. “Soliq qarzдорligiga ta’sir etuvchi omillar” – monografiya. 30.s. Toshkent, 2020 y


¹⁴ Tadqiqotlar asosida mualliflik ishlanmasi.

soliq tizimiga bog‘liq muammolar, iqtisodiy sabablar va soliq to‘lovchilarga bog‘liq sabablar kabi omillarni qamrab olgan guruhlariga bo‘lgan holda o‘rganamiz.

Ushbu yo‘nalishlardagi omillar bugungi kunda soliq qarzini yuzaga keltiruvchi asosiy sabablarni ifodalaydi, shuningdek har bir omillar guruhi mazmunan bir qancha tarkibiy omillarni o‘z ichiga oladi. Mamlakatimizda soliq qarzdorliklarini undirish iqtisodiyotning barqarorligi hamda davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda bu jarayonni samarali tashkil etish maqsadida Davlat soliq qo‘mitasi, Majburiy ijro byurosi va sud organlari hamda boshqa turli vakolatli organlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik tizimi shakllantirilgan. Soliq qarzdorligini majburiy tartibda undirish jarayonlari faqat soliq organlarining tashabbusi orqali amalga oshirilmaydi. Bu jarayonda bir nechta sohaviy vakolatli idoralar birgalikda, belgilangan tartibda qonunchilikka muvofiq harakatlar asosida ishtirok etadi. Ushbu jarayonni umumiy tarzda, bir-biriga bog‘liq organlar o‘rtasidagi hamkorlik modeli sifatida tasavvur etish mumkin.

Disertatsiyaning **“O‘zbekiston soliq tizimida soliq qarzlarini baholash va undirish amaliyotining amaliy tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida Soliq qarzlarini undirishda vakolatli organlarning hamkorligi, O‘zbekistonda soliq qarzlari dinamikasi va uni undirish amaliyoti hamda soliq qarzlarini undirishda ekonometrik tahlili keltirilgan va bob yakunida mazkur masalalar bo‘yicha ilmiy xulosalar keltirilgan.

Soliq to‘lovchilarning soliq majburiyatlarini belgilangan vaqtda amalga oshirilib borishi byudjeti daromadlarini to‘liq shakllantirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan ham 2-rasmda davlat soliq xizmati organlari, Majburiy ijro byurosi hamda sud organlari o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmini samarali yo‘lga qo‘yish talab etiladi. O‘zbekistonda amaldagi qonunchilikda soliq qarzdorliklarini undirish jarayoni bir nechta bosqichda tashkil etilishi belgilangan. Bu jarayonda avvalo soliq qarzdorliklari soliq organlari tomonidan aniqlanadi va rasmiylashtiriladi.



2-rasm. Soliq qarzdorliklarini undirish jarayoniga bog‘liq vakolatli organlar¹⁵.

¹⁵ Tadqiqotlar asosida mualliflik ishlanmasi.

Keyingi bosqichlarda soliq qarzdorligi yuzasidan soliq to'lovchilarga talabnoma yuboriladi. Soliq to'lovchiga yuborilgan talabnoma yuzasidan to'lovlar amalga oshirilmagan taqdirda soliq organlari inkasso topshiriqnomasi orqali mavjud soliq qarzni undirish choralari amalga oshiradi. Agarda, soliq to'lovchining bankdagi hisobvaraqlarida mablag' mavjud bo'lmagan taqdirda, soliq organlari ijro hujjatlarini tayyorlab MIBga yuboradi. Majburiy ijro byurosi mazkur hujjatlar asosida qarzdorning mol-mulkiga xatlov qo'yish, aniqlangan aktivlarni auksion orqali sotish va tushgan mablag'ni soliq qarzi hisobidan o'tkazish ishlarini amalga oshiradi.

MIB tomonidan mol-mulk topilmagan hollarda ijro hujjatlari soliq organlariga qaytariladi. Shu bosqichda sud organlari ham jarayonga jalb etilib, korxona rahbarlariga nisbatan subsidiar javobgarlik choralari ko'rilishi yoki to'lovga layoqatsizlik holatida bankrotlik ishlari qo'zg'atilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining moliyaviy siyosatida soliq tushumlarining barqarorligi davlat moliyaviy siyosati samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri sifatida qoraladi.

Chunki davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismi aynan soliq tushumlari hisobidan shakllanadi va ularning o'z vaqtida hamda to'liq undirilishi mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirish imkoniyatini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, soliq tushumlarining izchil va barqaror tushib borishi davlatning fiskal barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Biroq amaliyotda soliq qarzdorligining yuzaga kelishi, uning miqdoran ortib borishi hamda vaqtida undirilmasligi davlat byudjetining rejalashtirilgan daromad qismiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holat nafaqat byudjet daromadlarining bajarilishini qiyinlashtiradi, balki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy majburiyatlarini o'z vaqtida amalga oshirishiga ham to'sqinlik qilishi mumkin.

Ayniqsa, soliq qarzdorligining tizimli ravishda oshib borishi soliq intizomi darajasining pasayishi, nazorat mexanizmlarining yetarli samara bermayotgani hamda ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatidagi muammolar bilan ham bevosita bog'liq bo'ladi.

Shu sababli soliq qarzlari baholash, ularning miqdoriy va sifat jihatidan o'zgarish dinamikasini tahlil qilish, shuningdek, undirish amaliyotlarini takomillashtirish soliq tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv soliq qarzdorligining shakllanish sabablari, uning tarkibi, hududlar va tarmoqlar kesimidagi holati, shuningdek, undirish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur o'rganish imkonini beradi.

Natijada soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish, qarzdorlikni kamaytirish va byudjet daromadlarining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan samarali mexanizmlarni ishlab chiqish mumkin bo'ladi.


Mazkur tahlil natijalari davlat byudjeti daromadlari tarkibida soliqlarning ulushi qanday shakllanayotganini chuqur va tizimli ravishda aniqlash imkonini beradi. Xususan, soliq tushumlarining umumiy byudjet daromadlaridagi salmog'i ularning fiskal barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini baholashda muhim mezon hisoblanadi. Shu bilan birga, amalga oshirilgan tahlil orqali soliq tushumlarining

rejalashtirilgan ko'rsatkichlarga qay darajada mos kelayotgani ham aniqlanadi. Bu esa davlat moliyaviy siyosatining samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil jarayonida soliq tushumlarining prognozdan og'ish darajasi, ya'ni ortiqcha yoki kam bajarilishi holatlari ham o'rganiladi. Mazkur holatlar iqtisodiy faoliyat darajasi, soliq bazasining kengayishi yoki qisqarishi bilan bevosita bog'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, fiskal intizomni mustahkamlashga ta'sir etuvchi asosiy omillar ham aniqlanadi. Jumladan, soliq ma'murchiligining samaradorligi, nazorat mexanizmlarining kuchaytirilishi va soliqlarni undirish tizimining takomillashtirilishi muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, soliq to'lovchilarning moliyaviy intizomi, ularning qonunchilik talablariga rioya etish darajasi ham fiskal barqarorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tahlil natijalari asosida davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish va soliq siyosatini yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish mumkin bo'ladi. Natijada, davlat moliya tizimining samaradorligini oshirish va iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish uchun zarur tavsiyalar ishlab chiqiladi.

3-rasmda mamlakatimizda 2020-yildan 2024-yillarda davlat byudjeti daromadlari sezilarli darajada oshgan. Jumladan: O'zbekistonning 2020-yilda umumiy daromadi 132 938,1 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib 274 423,9 mlrd so'mga tashkil qilgan holda miqdor jihatidan 2,06 barobarga o'sgan. Shuningdek, ushbu davrda yillik soliq tushumlari mos ravishda 112 892,2 mlrd so'mdan 215 537,8 mlrd so'mgacha ko'paygan bo'lsada, ammo 2024-yildagi soliq tushumlarining 2020-yilga nisbati 1,90 barobarni tashkil qilgan holda davlat byudjeti daromadlarining ko'payish tendensiyasiga mos bo'lmaganligini ko'rishimiz mumkin. Soliq tushumlarining byudjet daromadlaridagi ulushi 2020-yilda 84,9 foiz bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 78,5 foizgacha pasaygan.



3-rasm. Davlat byudjet daromadlarida soliq tushumlarining ulushi, mlrd so'm¹⁶.

¹⁶ Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida

Bu holat byudjet manbalarining soliqdan tashqari tushumlar hisobiga diversifikatsiyalanayotganini ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda tadqiqotimiz obyekti hisoblangan soliq qarzdorligi yuqori darajada saqlanishi undirilmagan soliqlar davlat byudjetiga tushumlar yetishmasligiga olib kelayotganini anglatadi. 5 yil mobaynida soliq ulushining 6,4 foiz punktga pasayishi soliq yukini kamaytirish va imtiyozlar kengayishi bilan bog'liq. Biroq, bu islohotlar to'lov intizomining susayishiga va soliq qarzdorligini o'sishiga olib kelmasligi shart. Soliq qarzlarini undirishni kuchaytirish – byudjet barqarorligining asosiy kafolatidir.

1-jadvalda tahlil davrida respublika miqyosida soliq tushumlari va soliq qarzdorligi birgalikda o'sish tendensiyasini erishganini ko'rishimiz mumkin.

1-jadval.

Soliq tushumlariga nisbatan soliq qarzdorligini o'sish dinamikasi hududlar kesimida (mlrd. so'm,)¹⁷.

Hudud nomi		2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Hududlar bo'yicha soliq tushumlari		29 418,1	40 627,2	48 217,0	49 841,1
Hududlar bo'yicha soliq qarzi		6 436,8	7 509,0	10 840,2	18 148,7
YSTBH DSI		1 070,0	1 034,0	984,5	1 261,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi.	Soliq tushumi	1 665,9	2 249,5	2 563,3	2 650,0
	Soliq qarzi	202,9	410,0	606,3	968,6
Andijon viloyati	Soliq tushumi	2 090,6	2 823,8	3 419,7	3 381,4
	Soliq qarzi	651,5	899,8	896,5	2 191,0
Buxoro viloyati	Soliq tushumi	2 068,8	3 037,7	3 411,4	3 535,5
	Soliq qarzi	374,8	361,2	490,5	731,1
Jizzax viloyati	Soliq tushumi	1 297,3	1 641,2	2 014,2	1 928,2
	Soliq qarzi	206,1	355,7	380,0	510,6
Qashqadaryo viloyati	Soliq tushumi	2 404,6	3 583,0	4 184,9	4 162,6
	Soliq qarzi	429,2	589,5	728,4	903,9
Navoiy viloyati	Soliq tushumi	1 758,7	2 232,5	2 825,5	2 453,9
	Soliq qarzi	69,7	130,2	166,3	250,4
Namangan viloyati	Soliq tushumi	1 977,6	2 909,7	3 082,1	3 035,9
	Soliq qarzi	332,4	383,8	666,4	1 353,6
Samarqand viloyati	Soliq tushumi	2 694,7	3 673,7	4 480,3	4 691,9
	Soliq qarzi	473,1	545,5	658,4	823,3
Surxondaryo viloyati	Soliq tushumi	1 743,1	2 343,3	2 696,7	2 694,2
	Soliq qarzi	252,5	400,8	562,5	642,8
Sirdaryo viloyati	Soliq tushumi	768,4	997,3	1 207,0	1 363,5
	Soliq qarzi	395,0	388,1	509,6	678,4
Toshkent viloyati	Soliq tushumi	3 121,5	3 946,1	5 316,0	4 839,7
	Soliq qarzi	1 008,6	944,7	1 429,2	3 029,0
Farg'ona viloyati	Soliq tushumi	3 005,2	4 152,7	4 566,6	4 755,7
	Soliq qarzi	857,2	825,7	928,6	1 331,7
Xorazm viloyati	Soliq tushumi	1 513,4	2 110,2	2 397,4	2 536,6
	Soliq qarzi	118,5	213,7	283,3	484,0
Toshkent shahri	Soliq tushumi	3 308,3	4 926,5	6 051,9	7 812,0
	Soliq qarzi	1 065,3	1 060,5	2 534,2	4 250,3

tayyorlandi.


¹⁷ Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

2021-yilda umumiy tushumlar 29,4 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa ushbu ko'rsatkich 2024-yilga kelib 49,8 trln so'mni tashkil etgan bo'lib qarib 1,69 barobarga o'sgan. Shu bilan birgalikda mavjud soliq qarzdorligiham 6,43 trln so'mdan 18,15 trln so'mgacha, ya'ni 2,81 barobarga oshganini kuzatishimiz mumkin. Bu o'sish sur'atlaridagi nomutanosiblik soliq ma'muriyatchiligida nazorat va ijro mexanizmlarini yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Umumiy holatda barcha hududlarda soliq qarzdorligi miqdori oshgan bo'lsada biroq ayrim hududlarda bu jarayon ancha tez sur'atda kechgan.

Jumladan: Toshkent shahrida soliq qarzdorligi 2021-yildagi ko'rsatkichi 1,065 trln so'mni tashkil qilgan va ushbu ko'rsatkich 2024-yil kelib 4,25 trln so'm miqdorigacha o'sgan. Soliq tushumlari ham 3,3 trln so'mdan 7,8 trln so'mgacha oshgan bo'lsada, qarz ulushi katta iqtisodiy salohiyatli hudud uchun xavotirli holat hisoblanadi. Toshkent viloyatida ham shunga o'xshash holat kuzatilib, soliq qarzdorligi 1,008 trln so'mdan 3,029 trln so'mgacha o'sgan. Andijon viloyatida soliq qarzdorligi 651,5 mlrd so'mdan 2,191 trln so'mgacha oshgani moliyaviy intizom muammolaridan dalolat beradi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda qarzdorlik hajmi nisbatan past darajada qolgan. Masalan, Navoiy viloyati 2024-yilda 250,4 mlrd so'm miqdorida soliq qarzdorligi bilan respublikada eng past ko'rsatkichni qayd etgan. Xorazm viloyatida esa bu ko'rsatkich 484,0 mlrd so'mga yetgan bo'lsada, umumiy hajm jihatidan past darajada qolmoqda. Bu holat ushbu hududlardagi yirik soliq to'lovchilarning barqaror to'lov intizomi va iqtisodiy faoliyatning moslashuvchanligi bilan izohlanishi mumkin. Yuqorida taqdim etilgan jadval ma'lumotlarini tahlil qilish natijalari shuni anglatadiki, 2021–2024-yillar davomida soliq tushumlari hajmi izchil oshib borgan bo'lsada, soliq qarzdorligining o'sish sur'atlari nisbatan yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Bu holat soliq tushumlari bilan qarzdorlik o'rtasida muvozanat to'liq ta'minlanmaganini ko'rsatadi. Qarzdorlikning tez sur'atlarda ortib borishi davlat byudjeti daromadlarining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, byudjet xarajatlarini moliyalashtirishda uzilishlar yuzaga kelish xavfi ortadi. Mazkur vaziyat soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini yanada oshirish zarurligini taqozo etadi. Shu bilan birga, soliq qarzdorligini boshqarishda mavjud mexanizmlarni qayta ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Nazorat tadbirlarini kuchaytirish orqali qarzdorlikning erta bosqichda aniqlanishi ta'minlanishi lozim. Profilaktik choralarni keng joriy etish esa soliq majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilishiga xizmat qiladi. Soliq to'lovchilar bilan tushuntirish va maslahat ishlarini faollashtirish ham muhim omil hisoblanadi. Hududlar kesimida qarzdorlik darajasidagi farqlar mavjudligi e'tiborni tortadi. Ayrim hududlarda soliq qarzdorligi nisbatan past darajada shakllangan. Bu hududlarda qo'llanilayotgan boshqaruv va nazorat tajribasi alohida o'rganilishi zarur. Ushbu ijobiy amaliyotlarni boshqa viloyatlar faoliyatiga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

4-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2021–2024-yillar davomida hududlar kesimida soliq qarzdorligining soliq tushumlariga nisbatan ulushi ko'p hollarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2021–2024-yillar davomida har bir hududda soliq qarzdorligining soliq tushumlariga nisbati foizda ifodalangan. Bu

ko'rsatkich soliq qarzini baholashda muhim mezon bo'lib, qarzidorlikning davlat byudjeti daromadlariga qanday ta'sir ko'rsatayotganini aniq ko'rsatadi.



4-rasm. 2021–2024-yillarda hududlar kesimida soliq qarzidorligini yillik soliq tushumlariga nisbati¹⁸.

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ayrim hududlarda ulush nafaqat muttasil, balki yuqori sur'atda oshgan. Masalan, Andijon viloyatida 2021-yilda 31 foiz bo'lgan ko'rsatkich 2024-yilda 65 foizga yetgan, ya'ni qariyb 2 barobarlik o'sish qayd etilgan. Toshkent viloyatida ham shunga o'xshash holat kuzatilgan: 2021-yilda 32 foiz bo'lgan ulush 2024-yilga kelib 63 foizgacha ko'tarilgan, bu ham qariyb 1.96 barobarga o'sgan.

Sirdaryo viloyatida esa soliq qarzidorligi ulushi doimiy yuqori bo'lgan hududlar qatorida. 2021-yilda 51 foiz bo'lgan ko'rsatkich 2024-yilda 50 foiz atrofida saqlanib qolgan. Bu barqaror yuqori xavf darajasi mavjudligini anglatadi. Shu bilan birga, Toshkent shahrida 2021-yilda 29 foiz bo'lgan qarzidorlik ulushi 2024-yilda 54 foizgacha ko'tarilib, qariyb 1.86 barobarga o'sgan.

Ammo, ayrim hududlarda soliq qarzidorligi ulushi past darajada saqlangan. Masalan, Navoiy viloyatida 2021-yilda 4 foiz bo'lgan ulush 2024-yilda ham 10 foizdan oshmagan. Bu holat soliq to'lovchilar intizomi va nazorat tizimi samaradorligini ko'rsatadi.

Muhim xulosa shundaki, faqat soliq qarzidorligi miqdoriga emas, balki uning soliq tushumlariga nisbatan ulushiga ham e'tibor berish zarur.

Chunki ayrim hududlarda tushumlar katta bo'lsada, qarzidorlik ulushi xavfli darajada yuqori. Shu bois, bunday tahlil orqali har bir hudud uchun individual soliq qarzini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish mumkin yuqori ulushli hududlarda undirish mexanizmlarini kuchaytirish, past ulushli hududlarda esa mavjud tizimni saqlash va rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

¹⁸ Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

2-jadval

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarni soliq qarzdorligi dinamikasi (mlrd. so'm)¹⁹

Ko'rsatkichlar		2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Respublika bo'yicha	Jami soliq qarzi	4 428,1	7 506,7	8 543,0	11 824,7	19 410,2
	Shundan faoliyat ko'rsatayotgan	1 837,3	3 055,2	4 335,3	6 152,8	8 559,9
	Ulushi	41%	41%	51%	52%	44%
shundan						
YSTBH DSI	Jami soliq qarzi	292,1	1 070,0	1 034,0	984,5	1 261,3
	Shundan faoliyat ko'rsatayotgan	206,0	729,7	763,0	859,5	1 033,1
	Ulushi	71%	68%	74%	87%	82%
Hududlar kesimida	Jami soliq qarzi	4 136,0	6 436,8	7 509,0	10 840,2	18 148,9
	Shundan faoliyat ko'rsatayotgan	1 631,3	2 325,5	3 572,4	5 293,2	7 526,8
	Ulushi	39%	36%	48%	49%	41%

2-jadvalda mamlakatimizda so'nggi 5 yillik davrda soliq qarzdorligining o'sib borayotganini hamda bu jarayonda faoliyat ko'rsatayotgan va faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning hissasi muhim o'rin tutadi.

Respublika miqyosida 2020-yilda jami soliq qarzi 4 428,1 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lib, shundan faoliyat ko'rsatib kelayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning soliq qarzdorligi 1 837,3 mlrd so'mni, ya'ni jami qarzdorlikka nisbatan 41 foizni tashkil qilgan, faoliyat ko'rsatmayotgan subyektlar qarzi esa 2 590,8 mlrd so'm yoki 59 foiz bo'lib, faol subyektlar soliq qarzi faoliyat ko'rsatmayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan 1,4 barobar kam qayd etilgan.

2024-yilga kelib esa jami soliq qarzi 19 410,2 mlrd so'mga yetgan bo'lib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan subyektlarning soliq qarzi 8 559,9 mlrd so'm yoki 44 foizni tashkil qilgan, faoliyat ko'rsatmayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga soliq qarzi esa 10 850,3 mlrd so'm 56 foiz bo'lib, faol subyektlar soliq qarzi faoliyatsizlarnikidan 1,27 barobar kam bo'lgan.

Bu ko'rsatkichlarni YSTBH DSI (Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi) va hududlar kesimida tahlil qiladigan

¹⁹ Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

bo'lsak: YSTBH DSIda 2020-yilda jami soliq qarzi 292,1 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, shundan faoliyat ko'rsatib kelayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning soliq qarzi 206,0 mlrd so'm yoki 71 foizni tashkil qilgan.

Faoliyat ko'rsatmayotgan subyektlarning soliq qarzi esa 86,1 mlrd so'm 29 foiz bo'lib, faol subyektlar qarzi faoliyat yuritmayotgan subyektlardan 2,4 barobar yuqori qayd etilgan. 2024-yilda esa jami soliq qarzi 1 261,3 mlrd so'mga yetgan bo'lib, shundan faoliyatli subyektlar qarzi 1 033,1 mlrd so'm yoki 82 foizni tashkil qilgan, faoliyatsizlar qarzi esa 228,2 mlrd so'm 18 foiz bo'lib, faol subyektlar qarzi faoliyatsizlarnikidan qariyb 4,5 barobar ko'p bo'lgan.

Bu ko'rsatkich YSTBH DSI segmentida soliq qarzdorligining asosiy qismi ishlab turgan subyektlar hissasiga to'g'ri kelishini va undiruv jarayonida asosiy e'tibor shu toifaga qaratilgani maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Hududlar kesimida 2020-yilda jami soliq qarzi 4 136,0 mlrd so'm bo'lib, shundan faoliyat ko'rsatib kelayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning soliq qarzi 1 631,3 mlrd so'm yoki 39 foizni tashkil qilgan, faoliyat ko'rsatmayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar soliq qarzi esa 2 504,7 mlrd so'm 61 foiz bo'lib, faol xo'jalik yurituvchi subyektlarning soliq qarzigacha nisbatan faoliyatsiz subyektlarning soliq qarzi 1,53 barobar kam qayd etilgan.

2024-yilda esa jami soliq qarzi 18 148,9 mlrd so'mga yetgan bo'lib, shundan faoli subyektlarning soliq qarzi 7 526,8 mlrd so'm yoki 41 foizni tashkil qilgan, faoliyatsiz subyektlar esa soliq qarzi 10 622,1 mlrd so'm 59 foiz bo'lib, faol subyektlarning soliq qarzi faoliyatsizlarnikidan 1,41 barobar kam bo'lgan.

Bu holat hududlarda shakllangan soliq qarzdorligi tarkibini tahlil qilganda qarzdorlikning asosiy qismi faoliyatsiz yoki iqtisodiy faoliyat olib bormayotgan subyektlar hissasiga to'g'ri kelayotganini ko'rsatadi. Bunday subyektlarning faoliyati to'xtagan yoki moliyaviy holati sust bo'lgani sababli ularning qarzlarini undirish jarayoni ancha murakkablashadi. Natijada soliq organlari uchun qarzdorlikni qisqa muddatda undirish imkoniyati kamayadi. Shuningdek, bunday korxonalarda aktivlar va aylanma mablag'larning yetarli emasligi undiruv samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli qarzdorlikni undirish jarayonida tavakkalchilik darajasi yuqori bo'lib, qo'shimcha nazorat va tahliliy choralarni talab etadi.

3-jadval ma'lumotlarini tahlil qilish natijalari respublikamizda so'ngi besh yil davomida soliq turlari kesimida soliq qarzdorligi tarkibida sezilarli tarkibiy va miqdoriy o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatadi. Xususan, soliq qarzdorligi tarkibida eng katta ulush qo'shilgan qiymat solig'iga (QQS) to'g'ri kelmoqda.

2020-yilda ushbu soliq turi bo'yicha qarzdorlik umumiy qarzdorlikning 32 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 52 foizgacha oshgan.

Miqdor jihatidan esa QQS bo'yicha qarzdorlik hajmi qariyb yetti barobarga ko'paygan. Mazkur holat iqtisodiy aylanmaning kengayishi, xo'jalik yurituvchi subyektlarda aylanma mablag'lar yetishmasligi hamda hisob-fakturalar asosida to'lovlarni kechiktirish amaliyotining keng tarqalganligi bilan izohlanadi.

**O‘zbekistonda 2020-2024 yillarda soliq turlari bo‘yicha shakllangan
qarzdorlik ko‘rsatkichlari (mlrd. so‘m) ²⁰**

Soliq turi		2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Jami		4 428,1	7 506,7	8 543,0	11 824,7	19 410,2
Qo‘shilgan qiymat solig‘i	miqdori	1 436,2	4 348,5	4 355,4	5 864,3	10 045,7
	ulushi	32%	58%	51%	50%	52%
Aksiz solig‘i	miqdori	29,2	75,8	273,6	204,4	484,3
	ulushi	1%	1%	3%	2%	2%
Jismoniy shaxslarning daromad solig‘i	miqdori	405,3	510,8	810,3	966,2	1 313,4
	ulushi	9%	7%	9%	8%	7%
Foyda solig‘i	miqdori	160,1	896,8	965,4	2 121,1	4 336,4
	ulushi	4%	12%	11%	18%	22%
Aylanmadan soliq	miqdori	200,5	602,6	426,1	403,8	421,4
	ulushi	5%	8%	5%	3%	2%
Yer qa‘ridan foyda. uchun soliq	miqdori	60,4	293,5	288,7	58,1	166,4
	ulushi	1%	4%	3%	1%	1%
Mol-mulk solig‘i	miqdori	820,8	109,7	273,5	340,4	537,8
	ulushi	19%	1%	3%	3%	3%
Yer solig‘i	miqdori	1 124,0	494,7	887,4	1 496,2	1 489,8
	ulushi	25%	7%	10%	13%	8%
Suv resurslaridan foyda. uchun soliq	miqdori	191,6	174,4	262,6	370,3	615,0
	ulushi	4%	2%	3%	3%	3%

Aksiz solig‘i bo‘yicha qarzdorlik ulushi nisbatan kichik bo‘lishiga qaramay, uning dinamikasi e‘tiborga loyiqdir. Ushbu soliq turi ulushi 1 foizdan 2 foizgacha oshgan, miqdor jihatidan esa 16,6 barobarga ko‘paygan. Bu holat aksizlik mahsulotlar ishlab chiqarish va iste‘mol hajmining oshishi, shuningdek, ayrim soliq to‘lovchilarda to‘lov intizomining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha qarzdorlik ulushi 9 foizdan 7 foizgacha qisqargan bo‘lsada, uning mutlaq miqdori 3,24 barobarga oshgan. Bu holat ish haqi fondlarining kengayishi hamda ayrim korxonalar tomonidan ish haqi bilan bog‘liq soliq majburiyatlarining o‘z vaqtida bajarilmasligi bilan izohlanadi.

Foyda solig‘i bo‘yicha qarzdorlik ulushi keskin oshib, 4 foizdan 22 foizgacha yetgan va miqdor jihatidan 27 barobarga ko‘paygan. Bunday o‘shish, asosan, yirik foyda ko‘rsatkichiga ega korxonalarda yuzaga kelayotgan likvidlik muammolari va moliyaviy resurslarning qayta taqsimlanishi bilan bog‘liq bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha qarzdorlik ulushi 5 foizdan 2 foizgacha kamaygan bo‘lsada, umumiy summa 2,1 barobarga oshgan. Bu holat kichik biznes subyektlarida soliq to‘lov intizomining yetarli darajada mustahkam emasligini ko‘rsatadi.

Mol-mulk solig‘i bo‘yicha qarzdorlik ulushi 19 foizdan 3 foizgacha qisqargan

²⁰ Muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tayyorlandi.

va miqdor jihatidan ham kamaygan bo'lib, bunga mol-mulkni baholash mexanizmlarining o'zgarishi hamda undiruv choralarining nisbatan samaradorligi ta'sir ko'rsatgan.

Yer solig'i ulushi 25 foizdan 8 foizgacha pasaygan bo'lsada, mutlaq miqdorda 1,3 barobarga oshgan.

Suv solig'i bo'yicha qarzдорlik ulushi 4 foizdan 3 foizgacha qisqargan, biroq miqdor jihatidan 3,2 barobarga ko'paygan bo'lib, bu suv resurslaridan foydalanish hajmining ortishi va to'lov intizomi bilan bog'liq muammolar mavjudligini anglatadi.

Umuman olganda, jadval ma'lumotlari QQS va foyda solig'i bo'yicha qarzдорlikning yuqori va o'sib borayotgan ulushi soliq majburiyatlarini bajarishda tizimli muammolar mavjudligidan dalolat berishini ko'rsatadi.

Aylanmadan olinadigan soliq, yer solig'i va mol-mulk solig'ida ulushning pasayishi ayrim hollarda undiruv samaradorligining oshishi yoki soliq imtiyozlarining ta'siri bilan izohlanishi mumkin. Shu bilan birga, yuqori qarzдорlik asosan faol iqtisodiy subyektlarda emas, balki faoliyat yuritmayotgan subyektlar hissasiga to'g'ri kelayotgani undirib bo'lmaydigan qarzlار muammosining saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, soliq qarzдорligi tarkibidagi bunday nomutanosib o'zgarishlar soliq siyosatini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Xususan, yirik soliq to'lovchilar faoliyati ustidan moliyaviy monitoringni kuchaytirish orqali QQS va foyda solig'i bo'yicha qarzдорlikning oldini olish mumkin. Soliq qarzlارining erta bosqichda aniqlanishi va ularni restrukturizatsiya qilish mexanizmlarini keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, aylanma mablag' yetishmovchiligini kamaytirishga qaratilgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralarini kuchaytirish zarur. Faoliyat yuritmayotgan xo'jalik subyektlari bo'yicha qarzдорlikni inventarizatsiya qilish va undirib bo'lmaydigan qarzlarni alohida hisobga olish tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Soliq qarzlارining shakllanishi, ularning dinamikasi hamda undirish jarayonlariga ta'sir etuvchi omillar ekonometrik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida mavjud amaliyotning zaif jihatlari aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi. Shuningdek, soliq qarzlارini undirish samaradorligini oshirishda statistik va iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqliklar baholanadi. Olingan natijalar asosida soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish yo'nalishlari belgilab beriladi.

$$\ln(Y) = \beta_0 + \beta_1 \ln(X_1) + \beta_2 \ln(X_2) + \dots + \beta_k \ln(X_k) + \varepsilon.$$

Bunda: Har bir β_i elastiklikdir, X_i bir foizga oshsa, boshqa omillar o'zgarmagan holda Y o'rtacha β_i foizga o'zgaradi.

Ta'riflovchi statistika

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
lnSQ	10	8.497	.84	6.922	9.874
lnSXS	10	7.771	.364	7.137	8.352
SYF	10	21.33	1.155	20	23
lnAUD	10	12.897	.569	12.04	13.706

Berilgan jadvalda, barcha asosiy ko'rsatkichlar logarifmik o'lchovda berilganligi ularning ko'paytmali va foizli dinamikasini baholashga qulaylik yaratadi. Soliq qarzining logarifmi o'rtacha darajada yuqori bo'lib, tarqoqligi katta; bu soliq qarzining davr mobaynida tez va beqaror kengayganini anglatadi.

ARIMA metodining yakuniy (forecasting) bosqichida tanlangan optimal ARIMA modellari asosida pessimistik, dinamik va optimistik ssenariylar bo'yicha o'rta muddatli (2025-2030 yillarga mo'ljallangan) prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi (4-jadval).

4-jadval

2025–2030 yillarda soliq xavfi summasining ssenariylar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari²¹.

Yillar	Pessimistik senariy	Dinamik senariy	Optimistik senariy
	<i>Soliq xavfi summasi</i>		
2025	4377,8776	4657,381	4936,884
2026	5291,1086	5570,612	5850,115
2027	6191,9246	6471,428	6750,931
2028	6888,3186	7167,822	7447,325
2029	7782,6176	8062,121	8341,624
2030	8833,3866	9112,89	9392,393


Soliq xavfi summasi vaqtli qatorida ham asosiy prognoz ko'rsatkichi sifatida dinamik senariy bo'yicha olingan natijalar tanlab olingan

Disertatsiyaning **“Soliq qarzlari baholash va undirish amaliyoti mexanizmlari takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida soliq qarzlari baholash va undirishda xorij davlatlarini tajribalari tahlillari hamda soliq qarzlari tahlillari hamda milliy iqtisodiyotdagi soliq qarzlari baholash va undirish bilan bog'liq mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari yoritilgan.

5-rasmda Rossiya davlati soliq qarzdorligini undirish jarayonlari tahlili shuni ko'rsatadiki, har ikki mamlakatda bosqichma-bosqich mexanizm asosida qarzni undirish tizimi shakllangan, biroq ularning yondashuvi va ustuvor yo'nalishlarida farqlar mavjud. Rossiya tizimi sud va ijro organlari orqali majburiy undirishga tayanadi: soliq organi talabnoma yuboradi, keyin sudgacha bo'lgan jarayonda bank hisobvaraqlaridan mablag' yechiladi, sud bosqichida esa mol-mulk baholanib, sotiladi yoki qarzdor bankrot deb topiladi. Bu jarayonning natijasi byudjetga tushum shaklida aks etadi.

Rossiya tizimi ijro jarayonining qat'iyligi va sud ishtirokiga urg'u beradi. Ushbu modelda raqamli nazorat, yagona hisobvaraq tizimi hamda elektron monitoring mexanizmlari soliq intizomini mustahkamlash va byudjet barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

²¹ ARIMA modeli asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



5-rasm. Rossiya davlatida majburiy to'lovlarni majburiy undirish mexanizmi (ijro jarayonlari doirasida)²².

Ilmiy tadqiqotimizning avvalgi boblarida nazariy asoslar, uslubiy yondashuvlar va amaliy tahlillar orqali olingan natijalar shuni anglatadiki, soliq qarzdorligini baholash va uni undirish jarayonidagi amaldagi usul hamda mexanizmlar to'liq samaradorlikni ta'minlay olmayapti. Jarayonda huquqiy asoslar bilan amaliy qadamlar o'rtasidagi uyg'unlikning yetarli emasligi, ma'lumot almashinuvidagi to'siqlar va ma'muriy jarayonlardagi chegaralanishlar soliq qarzdorligini to'liq hamda o'z vaqtida undirish imkoniyatlarini cheklab qo'ymoqda. Shu bois mazkur yo'nalishda tizimli islohotlarga ehtiyoj saqlanib qolmoqda, jumladan bugungi kunda ushbu yo'nalishda quyidagi muammolar mavjuddir.

Bugungi kunda soliq amaliyotida soliq to'lovchilardan ortiqcha undirilgan soliq mablag'larining o'z vaqtida qaytarilmasligi umumiy tizimiy muammolardan biri bo'lib, ayniqsa bu holat yuqori moliyaviy barqarorlik reytingiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari uchun jiddiy moliyaviy to'siq sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu toifaga kiruvchi tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy intizomga qat'iy rioya etishi, soliq majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishi va iqtisodiyotning barqaror o'sishiga hissa qo'shishiga qaramasdan, ortiqcha undirilgan mablag'larning kechiktirilgan holda qaytarilishi ularning aylanma mablag'laridan samarali foydalanish imkoniyatini cheklamoqda. Bunday holat yuqori barqarorlikka ega tadbirkorlik subyektlarning likvidlik darajasini pasaytiradi, investitsiyaviy loyihalarni moliyalashtirish jarayonini sekinlashtiradi hamda bozordagi raqobatbardoshligini susaytiradi. Natijada, davlat tomonidan ishlab chiqilgan "yuqori barqarorlik reytingi" institutining mohiyati – ya'ni soliq intizomini rag'batlantirish va moliyaviy ishonchni oshirish vazifasi to'liq amalga oshmaydi.

²² Muallif tomonidan Rossiya davlati soliq kodeksi va normativ hujjatlari asosida ishlab chiqildi.

1. Soliq tizimini samarali ishlashi, shu asnoda byudjet daromadlarining barqaror shakllanishi, ya'ni iqtisodiyotda byudjet nuqtai nazaridan moliyaviy resurslarni shakllanishi yoki qayta taqsimlanish bevosita byudjet xarajatlarini rejaga muvofiq optimal darajada samarali ishlatilishi bilan ham bog'liq.

Ushbu jarayonda ko'pchilik e'tibor bermaydigan muammoli jihatlardan biri soliq organlari tomonidan soliq to'lovchilardan ortiqcha undirilgan (yoki ular tomonidan ortiqcha to'langan) summalarni qaytarilish tartibida belgilangan muddatning keragidan uzoq muddatli davr asosida belgilanishi byudjet xarajatlarini ushbu muddat davomida rejalashtirish va uni ijrosini unga muvofiq amalga oshirish ehtimolini pasaytirishga sabab bo'luvchi risklik omil sifatida qarash mumkin.

Bu boradagi muammoning salbiy jihatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1) ushbu yo'nalishdagi soliq hisob-kitoblarining uzoq muddat davomida ochiq qolishi – ham byudjet tomonlama ham soliq to'lovchi subyektlar tomonlama hisob yuritishda noaniqliklar keltirib chiqaradi;

2) bu borada uzoq muddatli tartibning mavjudligi byudjet xarajatlarida ortiqcha soliq to'lovlar bo'yicha foizli xarajatlarning ham ortishiga sabab bo'lishi mumkin;

3) psixologik jihatdan soliq to'lovchilarda o'z hisob-kitoblariga jiddiyroq yondashish borasida e'tiborsizlikni oshishiga, natijada xatolarni kech aniqlashga turtki bo'lishi;

4) natijaviy va umumiy jihatlama soliq organlari ish samaradorligini pasaytiruvchi holatlar ko'payishi kuzatiladi.

2. Amaldagi tartibga ko'ra, soliq auditi natijasida qo'shimcha hisoblangan soliqlar va moliyaviy sanksiyalar bo'yicha qaror kuchga kirgach, yuridik shaxslar hamda YaTT larga 6 oy davomida teng ulushlarda to'lash huquqi berilgan. Mazkur mexanizmning maqsadi – tekshiruvlar natijasida yuzaga keladigan majburiyatlarni bir martada to'lash imkoniyati cheklangan soliq to'lovchilarda moliyaviy barqarorlik, likvidlilik va to'lov qobiliyati yomonlashuvining oldini olishdir. Biroq ushbu bo'lib-bo'lib to'lash tartibi kameral soliq tekshiruvlari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan summalarga tatbiq etilmasligi amaliyotda salbiy oqibatlar keltirib chiqarmoqda. Chunki kameral tekshiruvlar ko'lami: 2020–2024-yillar davomida soliq tahlillari natijasida korxonalar soni bosqichma-bosqich kamaygan bo'lsada, aniqlangan moliyaviy natijalar hajmi izchil oshib borgan.

Xususan, 5-jadvalda 2020-yilda 292 565 ta korxona hisobiga 1 789,9 mlrd so'm to'g'ri kelgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 91 260 ta korxona hisobiga 11 915,8 mlrd so'm shakllangan. Shu bilan birga, bir korxonaga to'g'ri keladigan o'rtacha yuk 6,1 mln so'mdan 130,5 mln so'mgacha oshgan.

Bu holat soliq nazoratining miqdordan sifatga o'tganini, ya'ni kamroq, ammo yirik va riskli subyektlarga e'tibor qaratilganini anglatadi. Ayniqsa, 2023-yilda o'rtacha ko'rsatkichning keskin oshishi selektiv tekshiruv mexanizmlarining kuchayganini ko'rsatadi. Mazkur holat natijasida aynan ushbu toifadagi soliq to'lovchilar faoliyatida barqarorlikning izdan chiqishi ehtimoli kuchayadi. Bu jarayon xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatib,

ularning majburiyatlarni ixtiyoriy ravishda bajarish intizomini susaytiradi. O'z navbatida, soliq to'lovlarining kechiktirilishi va majburiy undirish holatlarining ko'payishi kuzatiladi. Bunday sharoitda soliq organlari bilan soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlar murakkablashib boradi. Natijada nizoli holatlar soni ortadi hamda soliq ma'muriyatchiligi samaradorligiga putur yetadi. Ushbu omillar iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatib, soliq tizimining umumiy ishonchliligini pasaytiradi.

5-jadval

O'tkazilgan kameral soliq tekshiruvi natijasida 2020-2024-yillar davomida qo'shimcha hisoblangan to'lovlar to'g'risida tahlil (mlrd. so'mda)²³.

Hududlar	2020 yil davomida		2021 yil davomida		2022 yil davomida		2023 yil davomida		2024 yil davomida	
JAMI	Korxona soni	Summa	Korxona soni	Summa	Korxona soni	Summa	Korxona soni	Summa	Korxona soni	Summa
	292 565	1789,9	269 137	3267,6	157 337	5 338,50	59 264	9 604	91 260	11 915,80
Qoraqalpog'iston Respublikasi	19 897	118	23 609	246,2	11 467	424,1	3 052	127,8	3 902	137,4
Andijon viloyati	22 585	154,3	21 338	204	14 773	194,8	4 135	181,9	9 676	811,1
Buxoro viloyati	29 158	144	24 900	244,6	12 613	258	4 458	216,6	6 249	266,6
Jizzax viloyati	25 597	77,5	21 079	123,5	11 448	223,4	2 404	120,3	5 421	206,1
Qashqadaryo viloyati	18 871	98,5	19 329	241,1	12 051	270,9	5 323	222,1	8 701	359,3
Navoiy viloyati	10 157	53,8	10 013	116,6	5 800	102,1	2 406	85,5	4 102	108,5
Namangan viloyati	15 293	95,3	10 632	132,3	9 169	225	3 233	203,6	5 406	414,4
Samarqand viloyati	41 159	153,5	33 093	180,1	17 844	439,5	5 082	198	7 318	263,6
Surxondaryo vil.	10 730	62,1	12 907	103,7	8 809	195,6	3 860	233	4 617	309,3
Sirdaryo viloyati	14 531	53,4	10 480	116,5	5 460	154,8	1 943	105	4 518	182,5
Toshkent viloyati	17 353	140,2	18 905	274,5	13 234	370,2	5 376	302,7	6 119	346,2
Farg'ona viloyati	21 292	140,4	23 679	287,1	10 484	248,2	4 993	244,9	7 291	355,4
Xorazm viloyati	13 468	73,1	16 482	146,9	8 324	175,7	3 922	161,1	6 707	185,5
Toshkent shahri	32 474	425,8	22 691	850,4	15 207	942,6	8 351	589,4	10 528	1 367,00
YST inspeksiyasi	0	0	0	0	654	1 113,70	726	6 612,50	705	6 602,70

Shu bois, kameral tekshiruvlar bo'yicha ham bo'lib-bo'lib to'lash mexanizmini joriy etish yoki moslashtirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi.

4. Soliq ma'muriyatchiligida soliqni bir yo'la to'lash talabi tadbirkorlik subyektlarining qisqa muddatli likvidliligi va to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatsada, bu holatni har doim ham faoliyatni to'xtatadigan "mutlaq bankrotlik xavfi" sifatida baholab bo'lmaydi. Biroq amaldagi me'yorlarda bunday vaziyat "nochorlik (bankrotlik) alomatlar" tushunchasi bilan izohlanadi, bu esa iqtisodiy mazmunni to'liq ifodalamaydi: bankrotlik – sud tomonidan tasdiqlanadigan oxirgi bosqich hisoblanadi. Normativ-huquqiy va iqtisodiy mazmun o'rtasidagi nomuvofiqlik soliq organlarining erta ogohlantiruvchi choralarini qiyinlashtirib, kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash masalalarida aniqlikni pasaytiradi. Natijada

²³ Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

baholashda subyektivlik kuchayadi va moliyaviy xavflarni boshqarish sustlashadi. Shu bois, soliq yukining keskin tushishi bilan bog‘liq holatlarni aniq tasniflaydigan, iqtisodiy jarayonlarga mos va amaliyotda tushunarli kategoriya zarurati dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

5. Amaldagi soliq qonunchiligida soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddati besh yil etib belgilanishi bu xo‘jalik yurituvchi subyektlarning amaliy faoliyatida muhim iqtisodiy noqulayliklarni keltirib chiqarmoqda.

Tadbirkorlik jarayonlarida moliyaviy oqimlarni boshqarish, investitsiya sikllarini shakllantirish va uzoq muddatli rejalashtirishning aniq bo‘lishi juda muhim bo‘lsada, soliq majburiyatlarining yillar davomida ochiq qolishi ushbu jarayonlarning barqarorligini izdan chiqarmoqda. Bunda, 5 yillik da’vo muddati qo‘shimcha tavakkalchilik omiliga aylanib, biznes subyektlarida huquqiy barqarorlik va fiskal prognozlar bo‘yicha ishonchsizlikni kuchaytirib bormoqda. Soliq to‘lovchilar yoki undiruvchilar tomonidan obyektiv va subyektiv sabablarga ko‘ra tegishli soliq hisobot davrida aniqlanmagan (yoki hisoblanmagan) soliq bo‘yicha majburiyatlarning kelgusi davrlarda aniqlanishi va undirilish muddatining uzoq muddatli bo‘lishi bir tomondan davlat byudjeti ijrosida tushumlarning nobarqaror bo‘lishiga sabab bo‘lsa, ikkinchi tomondan soliq to‘lovchilarda ushbu uzoq muddat davomida nazarda tutilmagan majburiyatlarning yuzaga kelishi va bu xavfning mavjudlik davri uzoq vaqtlarda saqlanishi ularda faoliyat barqarorligini ta‘minlash jihatidan muammoli masalalar hisoblanadi. Shuningdek ushbu holatlar daromadlarni rejalashtirish imkoniyatlarini cheklab, byudjetga tushum oqimlarida mavsumiy tebranishlar va fiskal barqarorlikka salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, yillar mobaynida saqlanib qoladigan soliq hujjatlari soliq organlarining ma‘muriy yukini oshirib, nazorat mexanizmlarining cho‘zilishiga, ijro intizomining tizimli ravishda pasayishiga sabab bo‘lmoqda.

6. Soliq qarzdorligi soliq ma‘muriyatchiligi samaradorligini belgilab beruvchi va shu bilan birgalikda davlat byudjeti daromadlarining samaradorligiga salbiy ta‘sir etuvchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Biroq O‘zbekiston soliq tizimida soliq qarzlarini baholash yuzasidan aniq va ilmiy tartibda asoslangan mezonlar keltirilmagan. Soliq qarzlari asosan hisoblangan va to‘lanmagan majburiyatlar sifatiga qaralib, ushbu soliq qarzlarini undirish ehtimoli, muddati, moliyaviy xavfi va soliq to‘lovchining to‘lov qobiliyati kabi omillarni baholovchi ilmiy mezonlar mavjud emas. Bu holat soliq qarzlarini barvaqt aniqlash va profilaktik choralarni qo‘llash imkoniyatlarini cheklaydi. Soliq qarzlari ma‘lum bir statistik ma‘lumotlar va tahlillar bilan cheklanib bu holat soliq qarzining sifati va xavf darajasini baholash imkonini bermaydi. Natijada ko‘plab soliq qarzдорliklariga nisbatan bir xil ma‘muriy ta‘sir choralari qo‘llanilib risk darajalari farqlanmay qolmoqda. Bu esa o‘z navbatida soliq organlari soliq qarzlarini undirilishiga qaratilgan say harakatlarini samaradorligini pasayishiga sabab bo‘lmoqda.

6-jadvalda soliq qarzini baholashning yagona va mukammal metodikasi amaliyotda yetarli darajada shakllanmaganligi bois, olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida ushbu jarayonni takomillashtirishga qaratilgan quyidagi baholash yondashuvlarini taklif etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Soliq qarzlari baholash uslubiyoti ²⁴.

Hududning soliq qarzdorlik darajasi	
$K_r = \frac{D_r}{T_r} \times 100\%$	K_r – hududning soliq qarzdorlik darajasi D_r – hududning mavjud soliq qarzi T_r – hisobot davridagi soliq tushumi Izoh: bu ko'rsatkichni hisoblashdan maqsad, hududda hisobot davrida soliq tushumlarini qanchagacha oshirish potensialini aniqlash.
Korxonaning soliq qarzdorlik darajasi	
$K_i = \frac{D_i}{S_i} \times 100\%$	K_i – korxonaning soliq qarzdorlik darajasi D_i – korxonaning mavjud soliq qarzi S_i – korxonada hisobot davridagi soliq bo'yicha majburiyatlari Izoh: bu ko'rsatkichni hisoblashdan maqsad, korxonaning hisobot davridagi soliq majburiyatlarni bajarilmagan qismini aniqlash.
Hisobot davrida soliq qarzini undirilish darajasi	
$U = \frac{C - K}{D_0} \times 100\%$	U – Soliq qarzini undirilish darajasi C – hisobot davrida to'langan soliq summasi K – hisobot davrida hisoblangan soliq majburiyati D₀ – hisobot davri boshidagi soliq qarzi Izoh: bu ko'rsatkichni hisoblashdan maqsad, hisobot davrida mavjud soliq qarzdorligini o'zgarish dinamikasini aniqlash. <i>Bunda ko'rsatkichni musbat chiqishi hisobot davrida soliq qarzdorligini shuncha qismi kamayganini anglatadi, uning manfiy chiqishi mavjud soliq qarzdorligi shuncha darajada ko'payganini anglatadi.</i>

Mazkur ko'rsatkichlar soliq qarzdorligining turli darajalarda shakllanishi va boshqarilishini kompleks baholash imkonini beradi. Hududiy darajadagi ko'rsatkich soliq tushumlarini oshirish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qilsa, korxona darajasidagi ko'rsatkich soliq majburiyatlarining bajarilmagan qismini baholashga yordam beradi. Shu bilan birga, undirilish darajasi soliq qarzining hisobot davridagi o'zgarish dinamikasini, ya'ni kamayish yoki ortish holatini aniqlash imkonini beradi. Ushbu indikatorlar asosida soliq ma'murchiligini takomillashtirish va fiskal intizomni mustahkamlash bo'yicha ilmiy xulosalar chiqarish mumkin.

XULOSA

Dissertatsiya tadqiqotini olib borish davomida soliq qarzlari baholash va undirish amaliyotini takomillashtirish bilan bog'liq quyidagi xulosalar shakllantirildi.

1. Soliq to'lovchining huquqlarini real kafolatlash va ortiqcha undirilgan mablag'larni tezkor qaytarish mexanizmini aniq muddatlar bilan mustahkamlashga

²⁴ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

qaratilganligi bilan izohlanadi. Amaliyotda 15 kunlik umumiy muddat hamda yuqori barqarorlik reytingiga ega subyektlar uchun 3 kunlik tezlashtirilgan tartib joriy etilishi soliq ma'murchiligida xizmat ko'rsatish standartlarini oshiradi. Bu yondashuv biznes subyektlarining aylanma mablag'lari uzluksizligini ta'minlab, likvidlik xavflarini kamaytiradi. Shuningdek, foizlar bilan birga qaytarish tartibi davlat organlari mas'uliyatini kuchaytirib, ortiqcha undirish holatlarini qisqartirishga turtki beradi. Natijada soliq tizimiga bo'lgan ishonch, shaffoflik va hisob-kitob intizomi mustahkamlanadi. Mazkur mexanizm soliq to'lovchi bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarda adolat tamoyilini amaliy jihatdan kuchaytiradi. Umuman olganda, ushbu yangilik soliq ma'murchiligini modernizatsiya qilish hamda tadbirkorlik muhitini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi samarali huquqiy yechim sifatida baholanadi.

2. Ortiqcha undirilgan soliq summalarini hisobga olish yoki qaytarish bo'yicha ariza berish muddatini aniq belgilab, soliq-huquqiy munosabatlarda "huquqiy aniqlik"ni kuchaytiradi. 3 yillik muddatning "fakt ma'lum bo'lgan kun" yoki "sud qarori kuchga kirgan kun"dan hisoblanishi amaliyotdagi talqinlar turlicha bo'lishi xavfini kamaytiradi. Bu soliq to'lovchining manfaatlarini himoya qilib, o'z huquqini o'z vaqtida talab qilish imkonini kengaytiradi. Shu bilan birga, soliq organlari uchun ham hisob-kitoblarni tartibga solish va jarayonlarni standartlashtirishga xizmat qiladi. Natijada qaytarish/hisobga olish tartibi shaffoflashib, ortiqcha undirish holatlari bo'yicha nizolar qisqarishi mumkin. Umuman, mazkur norma soliq ma'murchiligini zamonaviylashtirish va byudjet barqarorligini mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Soliq statistikasi bo'yicha ma'lumotlar bazasini takomillashtirish va uning ochiqqligini ta'minlash soliq ma'muriyatining samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishidir. Buning uchun soliq ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlashning yagona elektron standarti joriy etilishi, ma'lumotlarning ishonch darajasi va yangilanish muddatlari aniq belgilanishi zarur. Markazlashtirilgan axborot platformasida barcha soliq ko'rsatkichlarini avtomatik integratsiyalash hamda real vaqt monitoringini yo'lga qo'yish tahlil aniqligini oshiradi. Ma'lumotlar ochiqqligi bo'yicha institutsional javobgarlikni kuchaytirish va belgilangan muddatlarda axborot e'lon qilinishini ta'minlash muhim hisoblanadi.

4. Yuridik shaxslar va YTTlar uchun qo'shimcha hisoblangan soliqlar hamda sanksiyalarni to'lashda aniq va qulay tartibni yaratdi. Xususan, soliq organi qarori kuchga kirganidan so'ng 6 oy davomida teng ulushlarda to'lash huquqi korxonalarning likvidligini saqlashga va kutilmagan moliyaviy bosimni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yozma va shaxsiy kabinet orqali xabarnoma berish mexanizmi hisob-kitoblarda oshkoralikni kuchaytirib, nizoli holatlarni qisqartiradi.

5. Hisobvara-q-fakturalar orqali soxta operatsiyalarni erta aniqlash va mablag'larni naqdlash sxemalarini cheklashga xizmat qiladi. "Raqamli tovar aylanmasi reyestri" tovar harakati va moliyaviy oqim o'rtasidagi nomutanosiblikni real vaqt rejimida ko'rsatib, soliq organlari nazoratini aniqroq va tezkorroq qiladi. Integratsiyalashgan monitoring avtomatik verifikatsiya orqali risklarni oldindan

baholab, soliq ma'muriyatchiligida shaffoflikni kuchaytiradi.

6. Soliq majburiyatini bir yo'la ado etish natijasida to'lovga qobiliyatsizlik xavfi yuzaga keladigan holatlarda soliq to'lovchiga huquqiy himoya mexanizmini yaratdi. Ya'ni soliqni kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati orqali biznes subyektlarining aylanma mablag'lari saqlanib, faoliyat barqarorligi ta'minlanadi. Bunda soliq yukining oqilona taqsimlanishi natijasida to'lov intizomi kuchayib, majburiy undiruv va sud jarayonlari ehtiyoji kamayadi.

Shu bilan birga, bankrotlik holatlarining oldi olinib, real sektorning moliyaviy barqarorligi qo'llab-quvvatlanadi. Natijada byudjet tushumlari uzluksizligi ta'minlanib, soliq qarzdorligi ortib borish xavfi pasayadi.

7. Soliq qarzdorligi soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini baholovchi muhim indikator bo'lib, uning ortishi davlat byudjeti daromadlari barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mavjud amaliyotda soliq qarzlari ko'proq "hisoblangan, ammo to'lanmagan majburiyat" sifatida talqin qilinib, uni undirish ehtimoli, muddati, moliyaviy xavfi hamda soliq to'lovchining to'lov qobiliyatini aks ettiruvchi ilmiy mezonlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu boisdan soliq qarzlarini baholash tizimining yetarlicha takomillashmaganligi sharoitida uni kompleks yondashuv asosida aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, soliq qarzlarini baholashni hududning soliq qarzdorlik darajasi, korxonaning soliq qarzdorlik darajasi hamda hisobot davrida soliq qarzining undirilish darajasi kabi asosiy mezonlar kesimida amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi..

8. Soliq majburiyati bo'yicha da'vo muddatining soliq davri yakunidan keyin 3 yil etib belgilanishi huquqiy aniqlikni kuchaytiradi va nizolarni vaqtida hal etishga xizmat qiladi. Bu tartib soliq organlari hamda sudlarning ortiqcha ish yukini kamaytirib, resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, eski davrlarga oid bahslarning cho'zilib ketishi oldi olinib, soliq ma'muriyatchiligida tartib-intizom mustahkamlanadi. Natijada fiskal barqarorlik oshib, iqtisodiy muhitda ishonch va prognozlilik kuchayadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.I.12.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТЕРМЕЗСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ОСТОНАКУЛОВ АЛИШЕР АБДУРАШИДОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАКТИКИ ОЦЕНКИ И ВЗЫСКАНИЯ
НАЛОГОВОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ**

08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Термез – 2026

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2024.2.PhD/Iqt4105.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (termizdu@umail.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Ахмедов Акбарали Султонмуродович доктор философии по экономическим наукам, доцент
Официальные оппоненты:	Атамуродов Шавкат Нусратуллаевич доктор экономических наук, доцент Худайкулов Садирдин Каримович доктор экономических наук, профессор
Ведущая организация:	Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится в _____ «_____» _____ 2026 года на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.I.12.02 по присуждению учёных степеней при Термезском государственном университете. Адрес: 190111, город Термез, улица Баркамол авлод, дом 43. Тел.: (876) 221-74-55, факс: (876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Термезского государственного университета (зарегистрирована под № _____). Адрес: 190111, город Термез, улица Баркамол авлод, дом 43. Тел.: (876) 221-74-55, факс: (876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2026 года.
(протокол реестра № _____ от «_____» _____ 2026 года).

А.Х. Тошкулов
Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор экономических наук,
профессор

У.Т. Тулаков
Секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор экономических наук, доцент

С.Ж. Гадоев
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению
ученых степеней, доктор
экономических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мировых странах по состоянию экономики можно видеть, что в обеспечении эффективности финансирования государственных расходов в стране, смягчения социальной напряжённости в обществе и реализации функций регулирования экономики высоко значение налоговых поступлений, в том числе влияние объёма и уровня существующей в экономике налоговой задолженности. “Во всём мире в экономиках стран уровень налоговой задолженности сохраняется на постоянно высоком уровне, в частности, по 38 государствам Организации экономического сотрудничества и развития (OECD) объём имеющейся налоговой задолженности в 2023 году составил 2,7 триллиона евро”¹. Вместе с тем, что данная ситуация возникает вследствие экономической нестабильности и административных трудностей в странах, сложившееся состояние налоговой задолженности может привести к ещё большему обострению положения по обусловившим её факторам. “В Казахстане, обладающем крупнейшей экономикой в Центральной Азии, исполнение налоговых поступлений в республиканский бюджет в 2024 году составило 97,1 процента, а за 11 месяцев 2025 года – 94,8 процента”², что свидетельствует о наличии в стране проблем, связанных со сбором налогов.

В мировом масштабе ведутся исследования по ряду направлений, связанных с регулированием налоговой задолженности, направленных на обеспечение стабильности финансовых источников при эффективной реализации роли государства в национальной экономике. В частности, существует необходимость в широком и более эффективном проведении исследований по таким направлениям, как анализ факторов, вызывающих налоговую задолженность, путём их группировки по различным критериям, смягчение и снижение их негативного воздействия, внедрение антикоррупционных методов устранения возникшей налоговой задолженности, разработка современной методологии оценки налоговой задолженности, совершенствование системы повышения эффективности взыскания налоговых долгов, устранение роста налоговых ставок и наличия тяжёлого налогового бремени, влияющих на налоговую задолженность и её состояние, а также усиление государственного регулирования налоговой задолженности.

В Узбекистане определённые задачи по совершенствованию практики оценки и взыскания налоговой задолженности направлены на сегментацию налоговой задолженности на основе риска, оперативное выявление источников возникновения задолженности и согласование мер взыскания с механизмами стимулирования добровольной уплаты и принудительного исполнения. На практике налоговые органы в целях повышения платёжной дисциплины по дополнительно начисленным налогам по результатам

¹ Отчет ОЭСР по налоговому администрированию за 2025 год

² Информация с официального сайта Государственного комитета по доходам Министерства финансов Республики Казахстан.

налогового аудита применяют возможности поэтапной уплаты, в частности, действует порядок: "...вправе уплачивать суммы дополнительно начисленных налогов ... равными долями в течение шести месяцев со дня вступления решения в силу"³. Вместе с тем процессы взыскания задолженности усилены с опорой на анализ налоговых рисков и использование автоматизированных информационных систем, при этом в случаях, когда добровольное исполнение не обеспечено, предусмотрено самостоятельное осуществление взыскания задолженности налоговым органом в порядке, установленном Налоговым кодексом⁴. В результате наряду с уточнением таких порядков в практике взыскания, как оценка и списание «безнадёжного долга», научные исследования, посвящённые измерению и управлению экономико-правовой эффективностью снижения налоговой задолженности, приобретают актуальное значение в эффективной реализации данных задач.

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, установленных в Указах Президента Республики Узбекистан от 30 января 2025 года № УП-16 «О Государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан - 2030» в Год охраны окружающей среды и «зелёной экономики», от 21 февраля 2024 года № УП-37 «О Государственной программе «Год поддержки молодёжи» по реализации Стратегии «Узбекистан-2030», от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О Стратегии «Узбекистан-2030», от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 9 сентября 2022 года № УП-218 «О списании налоговой задолженности, образовавшейся в результате применения действенного налогового механизма», от 28 июня 2022 года № УП-162 «О мерах по созданию благоприятных условий для бизнеса в период реформирования налогового администрирования», Постановлении от 14 июня 2023 года № ПП-192 «О мерах по дальнейшему стимулированию формирования активной предпринимательской среды, недопущению излишних расходов со стороны населения при исполнении налоговых обязательств и созданию дополнительных рабочих мест», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 8 апреля 2025 года № 210 «Об утверждении стратегии совершенствования системы управления государственными финансами на 2025-2030 годы» и других нормативно-правовых документах в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное научное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики «Духовно-нравственное и культурно-просветительское развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Научно-теоретические и практические

³ Взыскание налоговой задолженности. - <https://gov.uz/uz/>

⁴ Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 07.01.2021 № 1 «Об управлении налоговыми рисками, выявлении налогоплательщиков (налоговых агентов), подверженных налоговому риску, и организации и проведении налоговых проверок».

аспекты вопроса совершенствования механизма взыскания налоговой задолженности исследованы в научных работах зарубежных учёных-экономистов Пьетровой Г.В., Аушева Т.А., Винокходовой И.Г., Гаджиевой М.А., Гончаренко Л.И. и Богачёва С.В., Эбрайко М. и Руа С., Муртезая И.М., Атростика Б.К. и Наннса Дж.Р., Миллера М.Х., Хайдера Ф., Ризки Р.М. и Пративи А., Мартинеса-Васкеса Х., Санса-Арсеги и других⁵.

Общие аспекты механизма взыскания налоговой задолженности изучены в научных работах узбекских учёных-экономистов У.А. Бердиевой, Ш.Б. Бабаева, А.А. Гиёсова, Ш.Ш. Тураева, У.Х. Нормирзаева, У.Т. Тулакова, У.Ф. Хакимова, Ф.Б. Ахмедова, Ш. Жумаева, Н.Б. Розикова, Ж.Р. Бабамуродова, Р.А. Насимова⁶.

Связь темы исследования с планами научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, в котором выполнена диссертация. Данное диссертационное исследование выполнено в рамках

